


## VIII. TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT

O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan, tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2021- yilning yanvar-dekabr oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 3 166,1 mln. AQSH dollarini tashkil etib, 2020- yilga nisbatan 370,7 mln. AQSH dollariga yoki 13,3 % ga o'sdi.











### Tashqi savdo aylanmasi va balansi (yanvar-dekabr, mln. AQSH dollari)



Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

**Andijon viloyati bilan tashqi savdo aylanmasi eng yuqori  
ulushga ega bo'lgan davlatlar**  
(2021- yil yanvar-dekabr, mln. AQSH dollari)


TSAda eksport hajmi 979,5 mln. AQSH dollariga (67,7 % ga o'sdi) va import hajmi 2 186,6 mln. AQSH dollariga (1,1 % ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida – 1 207,1 mln. AQSH dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

				
<b>Koreya Respublikasi</b>	<b>XXR</b>	<b>Qozog'iston</b>	<b>Qirg'iz Respublikasi</b>	<b>Rossiya Federatsiyasi</b>
TSA – 1 257,9 Eksport – 0,7 Import – 1 257,2	TSA – 525,0 Eksport – 156,8 Import – 368,2	TSA – 358,1 Eksport – 348,0 Import – 10,1	TSA – 330,4 Eksport – 300,5 Import – 29,9	TSA – 279,3 Eksport – 88,6 Import – 190,7
				
<b>Turkiya</b>	<b>AQSH</b>	<b>Germaniya</b>	<b>Ukraina</b>	<b>Hindiston</b>
TSA – 94,9 Eksport – 32,2 Import – 62,7	TSA – 70,5 Eksport – 0,3 Import – 70,2	TSA – 22,9 Eksport – 1,0 Import – 21,9	TSA – 18,8 Eksport – 15,3 Import – 3,5	TSA – 18,1 Eksport – 0,4 Import – 17,7

Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun viloyatda zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o'zgarishlarga import tovarlarning o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

TSAda so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi va Turkmaniston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda. Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSAda XXR, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Ukraina, Hindiston, Polsha, Vetnam va Portugaliya davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.











**20 ta yirik hamkor-davlatlar ichida 4 ta faol tashqi savdo  
balansi kuzatilgan davlatlar**  
(2021- yil yanvar-dekabr)













Andijon viloyati jahonning 71 ta mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Koreya Respublikasida (39,7 %), Xitoy Xalq Respublikasida (16,6 %), Qozog'istonda (11,3 %), Qirg'iz Respublikasida (10,4 %) va Rossiya Federatsiyasida (8,8 %) qayd etilgan.


Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan to'rtta davlatda faol tashqi savdo balans kuzatilgan, xususan, Qozog'iston (337,9 mln. AQSH dollari), Qirg'iz Respublikasi (270,6 mln. AQSH dollari), Ukraina (11,8 mln. AQSH dollari) hamda Ozarbajjon (6,1 mln. AQSH dollari) shular jumlasidandir. Qolgan 16 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balans saqlanib qolmoqda.

**Andijon viloyatining yirik hamkor davlatlar bilan  
tashqi savdo aylanmasi dinamikasi**  
(yanvar-dekabr, mln. AQSH dollari)

	Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
	<b>Koreya Respublikasi</b>	<b>1 379,0</b>	<b>1 407,8</b>	<b>1 257,9</b>
	<i>Eksport</i>	1,1	0,8	0,7
	<i>Import</i>	1 377,9	1 407,0	1 257,2
	<b>Xitoy Xalq Respublikasi</b>	<b>249,2</b>	<b>340,4</b>	<b>525,0</b>
	<i>Eksport</i>	70,9	64,8	156,8
	<i>Import</i>	178,3	275,6	368,2
	<b>Qozog'iston</b>	<b>142,1</b>	<b>174,4</b>	<b>358,1</b>
	<i>Eksport</i>	122,8	164,0	348,0
	<i>Import</i>	19,3	10,4	10,1
	<b>Qirg'iz Respublikasi</b>	<b>215,7</b>	<b>269,6</b>	<b>330,4</b>
	<i>Eksport</i>	185,2	238,7	300,5
	<i>Import</i>	30,5	30,9	29,9
	<b>Rossiya Federatsiyasi</b>	<b>222,4</b>	<b>250,6</b>	<b>279,3</b>
	<i>Eksport</i>	60,3	65,7	88,6
	<i>Import</i>	162,1	184,9	190,7
	<b>Turkiya</b>	<b>61,9</b>	<b>62,0</b>	<b>94,9</b>
	<i>Eksport</i>	16,1	8,9	32,2
	<i>Import</i>	45,8	53,1	62,7
	<b>AQSH</b>	<b>47,0</b>	<b>17,8</b>	<b>70,5</b>
	<i>Eksport</i>	0,4	0,4	0,3
	<i>Import</i>	46,6	17,4	70,2
	<b>Germaniya</b>	<b>20,9</b>	<b>17,6</b>	<b>22,9</b>
	<i>Eksport</i>	0,5	0,2	1,0
	<i>Import</i>	20,4	17,4	21,9
	<b>Ukraina</b>	<b>11,4</b>	<b>16,2</b>	<b>18,8</b>
	<i>Eksport</i>	7,7	13,1	15,3
	<i>Import</i>	3,7	3,1	3,5
	<b>Hindiston</b>	<b>10,2</b>	<b>15,3</b>	<b>18,1</b>
	<i>Eksport</i>	0,2	0,7	0,4
	<i>Import</i>	10,0	14,6	17,7

	Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
	<b>Braziliya</b>	<b>12,6</b>	<b>19,6</b>	<b>17,9</b>
	<i>Ekspport</i>	0,1	0,0	0,1
	<i>Import</i>	12,5	19,6	17,8
	<b>Chexiya</b>	<b>12,7</b>	<b>19,3</b>	<b>17,8</b>
	<i>Ekspport</i>	0,1	0,1	0,1
	<i>Import</i>	12,6	19,2	17,7
	<b>Italiya</b>	<b>13,4</b>	<b>11,7</b>	<b>15,9</b>
	<i>Ekspport</i>	0,1	0,6	2,2
	<i>Import</i>	13,3	11,1	13,7
	<b>Tailand</b>	<b>7,1</b>	<b>83,6</b>	<b>13,3</b>
	<i>Ekspport</i>	0,0	-	-
	<i>Import</i>	7,1	83,6	13,3
	<b>Polsha</b>	<b>6,8</b>	<b>7,9</b>	<b>11,6</b>
	<i>Ekspport</i>	0,2	0,4	1,3
	<i>Import</i>	6,6	7,5	10,3
	<b>Eron Islom Respublikasi</b>	<b>6,9</b>	<b>5,2</b>	<b>10,2</b>
	<i>Ekspport</i>	3,2	1,1	0,7
	<i>Import</i>	3,7	4,1	9,5
	<b>Ozərbayjon</b>	<b>9,5</b>	<b>9,0</b>	<b>8,3</b>
	<i>Ekspport</i>	6,9	8,0	7,2
	<i>Import</i>	2,6	1,0	1,1
	<b>Shveytsariya</b>	<b>18,1</b>	<b>0,8</b>	<b>6,8</b>
	<i>Ekspport</i>	0,0	0,0	-
	<i>Import</i>	18,1	0,8	6,8
	<b>Avstriya</b>	<b>5,9</b>	<b>3,9</b>	<b>6,4</b>
	<i>Ekspport</i>	0,0	0,0	0,4
	<i>Import</i>	5,9	3,9	6,0
	<b>Meksika</b>	<b>6,3</b>	<b>7,1</b>	<b>6,1</b>
	<i>Ekspport</i>	0,0	0,0	0,0
	<i>Import</i>	6,3	7,1	6,1

**Andijon viloyatining hududlar kesimida tashqi savdo aylanmasi**  
(yanvar-dekabr 2021- yil)\*



Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Asaka 65,0 % ulush bilan 2 058,0 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng quyi ulushni Buloqboshi 0,5 % ulush bilan 14,9 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.




Andijon viloyati tashqi savdo aylanmasining uchdan bir qismi MDH davlatlariga to‘g‘ri keladi va bu ko‘rsatkich so‘nggi yillarda biroz o‘zgardi.

Viloyatimizda tashqi savdoni qo‘llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlari natijasida, 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 31,9 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2020- yilga nisbatan 5,8 % ga ko‘paygan.

#### **Andijon viloyatining tashqi savdo aylanmasida MDH mamlakatlari va boshqa xorijiy davlatlarning hajmlari dinamikasi**

(yanvar-dekabr, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



Boshqa xorijiy davlatlarning TSA 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida 2020- yilga nisbatan 4,4 % ga o‘ydi va jami TSAdagi ulushi 68,1 % ni tashkil etdi.


## ANDIJON VILOYATI EKSPORTI

(2021- yil yanvar-dekabr)

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatning eksportyorlari soni 443 tani tashkil etib, ular tomonidan 979,5 mln. AQSH dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2020- yilning mos davriga nisbatan 67,7 % ga o'sdi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

### XSST bo'yicha eksport tarkibi

(2021- yil yanvar-dekabr, ulushi, % da)



Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,2 % ni tashkil etib, ular mashinalar va transport asbob-uskunalar (37,2 %), sanoat tovarlari (31,9 %), turli xil tayyor mahsulotlar (24,6 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (4,1 %), nooziq-ovqat xomashyo (1,2 %) hamda kimyoviy vositalar (0,2 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



**Andijon viloyati XSST bo'yicha eksport tarkibi**  
(yanvar-dekabr,)

XSST tarkibi	Ming AQSH dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami eksport</b>	<b>979 472,8</b>	<b>768 921,0</b>	<b>210 551,8</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	40 351,1	36 412,1	3 939,0	4,1	4,7	1,9
Ichimlik va tamaki	133,4	133,4	-	-	-	-
Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	11 356,1	2 584,8	8 771,3	1,2	0,3	4,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	315,2	313,6	1,6	-	0,1	-
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	2,6	2,6	-	-	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	1 840,0	1 756,3	83,7	0,2	0,2	-
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	312 812,2	121 668,6	191 143,6	31,9	15,8	90,8
Mashinalar va transport asbob uskunalari	364 611,1	361 747,1	2 864,0	37,2	47,1	1,4
Turli xil tayyor buyumlar	240 470,9	238 475,0	1 995,9	24,6	31,0	0,9
Xizmatlar	7 580,2	5 827,5	1 752,7	0,8	0,8	0,8


**XSST bo'limi bo'yicha ayrim mahsulotlar eksporti tarkibi**  
(2021- yil yanvar-dekabr)

XSST bo'limi nomi	Ming. AQSH dollari	2020- yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Sabzavotlar va mevalar	36 179,8	80,0
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	1 644,1	134,1
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	1 109,0	2,1 m.
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	669,2	34,0
<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
Ichimliklar	133,4	38,2
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	8 536,9	70,4
Moy olinadiga urug'lar va mevalar	1 646,7	167,5
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	1 088,7	6,0
56- bo'limga kiritilgandan tashqari o'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	70,0	2,0 m.
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	315,2	70,5 m.
<b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	2,2	0,9
Qayta ishlangan hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,4	32,8
<b>Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Birlamchi shakldagi plastmassalar	574,1	103,7
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	393,3	113,5
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	270,2	28,4
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	204,3	81,7
<b>Sanoat tovarlari</b>		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	291 361,1	2,7 m.
Metallardan tayyorlangan buyumlar	9 895,5	82,0
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	4 163,8	123,5
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'o'z yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	3 688,5	13,0 m.

XSST bo'limi nomi	Ming. AQSH dollari	2020- yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunolari</b>		
Avtomobillar	327 380,3	188,8
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	19 080,3	97,3 m.
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblar va ularning ehtiyot qismlari	14 763,9	88,0
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	2 478,3	2,5 m.
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	212 284,3	139,9
Poyabzal	17 082,2	101,9
Har xil tayyor buyumlar	5 193,3	67,8
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash buyumlar	3 766,6	4,3 m.


**MDH va boshqa davlatlarga tovar va xizmatlar eksporti hajmlari dinamikasi**  
(yanvar-dekabr mln. AQSH dollari, ulushi, % da)

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida MDH mamlakatlariga 768,9 mln. AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning 78,5 % ini tashkil etdi.



## Viloyat eksportida asosiy hamkor davlatlarning ulushi

(2021- yil yanvar-dekabr, % da)



2021- yilning yanvar-dekabr oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Qozog'iston (eksport umumiy hajmining 35,5 %), Qirg'iz Respublikasi (30,7 %), Xitoy Xalq Respublikasi (16,0 %), Rossiya Federatsiyasi (9,0 %), Turkiya (3,3 %), Ukraina (1,6 %) va Ozarbayjon (0,7 %) davlatlari saqlanib qolmoqda hamda ularning jami eksportdagi ulushi 96,8 % ni tashkil etmoqda.


### Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

Viloyatdagi meva-sabzavot sektori shahar va tumanlarning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim segment hisoblanadi. Shuning uchun, bu sohada meva va sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish uchun barcha choralar ko'rilmoqda, bu esa o'z natijalarini bermoqda.



Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 39,2 mln. AQSH dollari qiymatli 75,2 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2020- yilning mos davriga nisbatan 7,6 mln. AQSH dollarida kamayish kuzatilib, 16,2 % ga pasaydi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 15,6 mln. AQSH dollariga teng 45,0 ming tonna sabzavot, shuningdek, 8,5 mln. AQSH dollari qiymatidagi 7,9 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.












### Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti (2021- yil yanvar-dekabr)



Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qirgʻiz Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Germaniya, Latviya, Avstriya, Turkiya hamda Turkmaniston davlatlari hissasiga toʻgʻri kelgan.

Hukumat tomonidan qishloq xoʻjaligi va bogʻdorchilikni rivojlantirishga katta eʼtibor qaratilayotgani bois, eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi 4,0 % ni tashkil etdi.

### Meva va sabzavot mahsulotlarinig eksport geografiyasi (2021- yil yanvar-dekabr)

	Davlatlar	tonna	ming AQSH dollari	ulushi, % da *
	<b>Qirgʻiz Respublikasi</b>	54 767,4	25 208,2	69,7
	<b>Rossiya Federatsiyasi</b>	15 580,2	9 030,2	25,0
	<b>Germaniya</b>	258,0	560,1	1,5
	<b>Latviya</b>	1 060,4	354,0	1,0
	<b>Avstriya</b>	99,1	219,2	0,6
	<b>Turkiya</b>	80,5	154,1	0,4
	<b>Turkmaniston</b>	810,7	125,2	0,3
	<b>Ukraina</b>	193,4	106,4	0,3
	<b>Qozogʻiston</b>	112,1	77,5	0,2
	<b>Armaniston</b>	66,0	69,8	0,2
	<b>Boshqa davlatlar</b>	395,4	275,1	0,8

\* qiymat ifodasidan

Meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Qirg'iz Respublikasiga to'g'ri keladi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 69,7 %), bu Rossiya Federatsiyasiga eksport hajmidan 2,8 barobar ko'pdir.

### To'qimachilik mahsulotlari eksporti







To'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining oshishi bevosita paxta xomashyosi o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko'rish mumkin. Jumladan, 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida 505,6 mln. AQSH dollarlik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 51,6 foizini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 88,1 % ga o'sdi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (41,9 %), paxtadan yigirilgan ip (41,8 %) asosiy ulushni egallagan yil boshidan 317 turdagi to'qimachilik mahsulotlari dunyoning 28 ta davlatiga eksport qilindi.

### To'qimachilik mahsulotlari eksporti dinamikasi

(yanvar-dekabr, ming. AQSH dollari)

	2020- y.	2021- y.
<b>Jami:</b>	<b>268,8</b>	<b>505,6</b>
 Tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari	150,5	211,9
 Paxtadan yigirilgan ip	69,3	211,3
 Naqshli mato	20,7	40,3
 Boshqa to'qimachilik mahsulotlari	7,3	14,1
 Ipak va ipak mahsulotlari	13,0	10,5
 Paxtadan gazlamalar	4,2	7,1
 Paxta mahsulotlari	2,5	5,4
 Gilamlar	0,01	2,9
 Boshqalar	1,3	2,1





## Andijon viloyatining importi


(2021- yil yanvar-dekabr)

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida import hajmi 2 186,6 mln. AQSH dollarini va 2020- yilga nisbatan 98,9 % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunolari (63,6 %), sanoat tovarlari (19,0 %), turli xil tayyor buyumlar (5,5 %), xizmatlar (5,0 %) hamda kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (4,4 %) va boshqalar hisobiga to'g'ri keldi.

### XSST bo'yicha import tarkibi

(2021- yil yanvar-dekabr, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2021- yilning yanvar-dekabrida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,3 mln. AQSH dollariga ortdi va 2 077,9 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 108,7 mln. AQSH dollariga yetdi.

**Andijon viloyati XSST bo'yicha import tarkibi**  
(yanvar-dekabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2020-y.	2021- y.	2020- y.	2021 –y.	2020- y.	2021- y.
<b>Jami import</b>	<b>2 211,3</b>	<b>2 186,6</b>	<b>108,8</b>	<b>98,9</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	20,1	21,6	101,0	107,4	0,9	1,0
Ichimlik va tamaki	-	-	58,0	21,5	-	-
Nooziq-ovqat hom- ashyo, yoqilg'idan tashqari	18,1	19,9	102,4	110,4	0,8	0,9
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	14,7	10,2	117,5	69,7	0,7	0,5
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	2,5	2,1	177,7	84,5	0,1	0,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	103,6	96,0	96,6	92,6	4,7	4,4
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	397,0	415,8	102,8	104,7	17,9	19,0
Mashinalar va transport asbob uskunalar	1 390,6	1 392,2	113,9	100,1	62,9	63,6
Turli xil tayyor buyumlar	126,0	120,1	103,6	95,3	5,7	5,5
Xizmatlar	138,7	108,7	95,2	78,4	6,3	5,0

**XSST bo‘limi bo‘yicha ayrim mahsulotlar importi tarkibi**  
(2021- yil yanvar-dekabr)

XSST bo‘limi nomi	Ming. AQSH dollari	2020- yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Tirik hayvonlar	11 963,8	121,9
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	2 415,4	69,7
Sabzavotlar va mevalar	2 365,1	2,1 m.
Kofe , choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	1 639,6	85,6
<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
Ichimliklar	6,2	21,5
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari</b>		
Probka va yog‘och-taxtalar	6 168,5	103,4
Tabiiy kauchuk (sun‘iy va regeneratsiya qilingan rezina)	5 045,4	129,4
To‘qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	3 198,3	70,6
56- bo‘limga kiritilgandan tashqari o‘g‘itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo (ko‘mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	2 484,4	177,4
<b>Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar</b>		
Ko‘mir, koks va briketlar	7 615,3	69,2
Neft va neft mahsulotlari va shunga o‘xshash metallar	2 628,5	71,1
<b>Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar</b>		
O‘simlik moylari va yog‘lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	2 031,6	83,1
Hayvonlar va o‘simliklar moylari va yog‘lari, qayta ishlangan	49,9	114,7
Hayvonlarning moylari va yog‘lari	21,6	-
<b>Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar</b>		
Birlamchi shakldagi plastmassalar	44 314,5	113,2
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	15 376,6	101,5
Bo‘yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo‘yoqlar	14 356,2	61,1
Organik kimyo moddalari	7 262,0	77,2


**XSST bo'limi bo'yicha ayrim mahsulotlar importi tarkibi**  
(2021- yil yanvar-dekabr)

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2020- yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Sanoat tovarlari</b>		
Cho'yan va po'lat	156 099,3	111,3
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	92 697,0	98,8
Metalldan tayyorlangan buyumlar	89 223,1	107,9
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	41 170,9	105,0
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunalar</b>		
Avtomobillar	958 473,9	94,9
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	154 438,9	116,8
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	149 411,1	114,4
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	58 638,7	106,6
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Har xil tayyor buyumlar	40 860,2	84,6
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	38 168,6	124,3
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebel	34 710,1	93,1
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunalar uchun armatura va mahkamlash moslamalari	3 204,2	46,1

Umumiy tovarlar importi o'tgan yilning mos davriga nisbatan kamayishiga qaramay ayrim tovar guruhlarida o'sish kuzatildi. Masalan, sabzavot va mevalar - 2 365,1 ming AQSH dollari (o'sish - 2,1 m.), tabiiy kauchuk - 5 045,4 ming AQSH dollari (o'sish - 129,4 %), maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari - 38 168,6 ming AQSH dollari (o'sish sur'ati - 124,3 %).

MDH mamlakatlaridan import ulushi 2020- yilning shu davriga nisbatan 0,6 % ga o'sgani kuzatildi. 2019- yilning shu davriga nisbatan 0,1 % ga o'sish qayd etildi va ularning jami importdagi ulushi 2021- yil yanvar-dekabr natijalariga ko'ra 11,1 % ni tashkil etdi.

**MDH va boshqa davlatlarga tovar va xizmatlar importi hajmlari dinamikasi**  
(yanvar-dekabr, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



2021- yilning yanvar-dekabr oylari yakuni bo'yicha Andijon viloyatida 62 ta davlatdan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Koreya Respublikasi, XXR, Rossiya Federatsiyasi, AQSH, Turkiya, Qirg'iz Respublikasi va Germaniya) jami importning 91,5 % ulushini tashkil qildi, bu 2 000,7 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

**Viloyat importida asosiy hamkor davlatlarning ulushi**  
(2021- yil yanvar-dekabr, % da)



## Mashinalar va transport asbob-uskunolari importi

2021- yil yanvar-dekabr oylarida import tarkibida mashinalar va transport asbob-uskunolari hajmi 1 392,2 million AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,1 foizga o'sdi va importning umumiy hajmidagi ulushi 63,6 % ga yetdi.

Import tarkibida asosiy ulushni tashkil qilayotgan mashinalar va transport asbob-uskunolari asosan qaysi davlatlardan viloyatimizga olib kirilayotganini quyidagi ma'lumotdan ko'rish mumkin.

### Mashina va asbob-uskunalar import qilingan asosiy hamkor davlatlar

(2021- yil yanvar-dekabr)



2021- yil yanvar-dekabr oylarida mashina va transport asbob-uskunolari o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,6 mln. AQSH dollariga oshdi. Ushbu tovarlarni O'zbekiston Respublikasiga yetkazib berishning asosiy qismi Koreya Respublikasi - 938,4 mln. AQSH dollari (67,4 %), Xitoy Xalq Respublikasi - 254,5 mln. AQSH dollari (18,3 %) va Rossiya Federatsiyasi - 41,1 mln. AQSH dollari (3,0 %) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.




## Sanoat tovarlari importi

2021- yil yanvar-dekabr oylarida import tarkibida sanoat tovarlari hajmi 415,8 million AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,7 % ga o'sdi va importning umumiy hajmidagi ulushi 19,0 % ga yetdi.

### Sanoat mahsulotlari import qilingan asosiy hamkor davlatlar

(2021- yil yanvar-dekabr)



Sanoat tovarlari importi asosan cho'yan va po'lat (156,1 mln. AQSH dollari), rezina buyumlari (92,7 mln. AQSH dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (89,2 mln. AQSH dollari), to'qimachilik iplari, matolar, tayyor mahsulotlar (41,2 mln. AQSH dollari), ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan buyumlar (25,2 mln. AQSH dollari) va boshqalardan tashkil topgan.